



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

HAMZA SHE'RIYATIDA VAZN TIZIMINING POETIK FUNKSIYASI

Abdusalomova Xonzodabegim Farxodjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, magistr

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatida vazn tizimining badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Nazmiy asarlarida aruz, barmoq va erkin vaznlarning qo'llanilishi hamda ularning poetik funksiyalari yoritiladi. Hamza ijodida metrik tizimlarning g'oya va mazmunga mos ravishda tanlangani va bu asarning estetik ta'sir kuchini oshirishga qay darajada xizmat qilgani aniqlandi. Natijada uning ijodida vazn tizimi faqat shakliy vosita emas, balki muhim poetik unsur ekanligi tasdiqlanadi.

Kalit so'zlar: vazn, aruz, barmoq, erkin she'r, jadid adabiyoti, poetik shakl, asarning strukturaviy tuzilishi.

ПОЭТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ МЕТРИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В ПОЭЗИИ ХАМЗЫ

Абдусаломова Хонзодабегим Фарходжон кизи

Андижанский государственный педагогический институт, магистр

Аннотация

В данной статье анализируются художественные особенности метрической системы в поэзии Хамзы Хакимзоды Ниязи. В исследовании рассматривается использование в его поэтическом творчестве таких метрических форм, как аруз, силлабический размер и свободный стих, а также раскрываются их поэтические функции. Особое внимание уделяется тому, каким образом выбор метрической организации соотносится с идейно-содержательным уровнем произведений и в какой степени он способствует усилению их эстетического воздействия. В результате установлено, что творчестве Хамзы метрическая система выступает не только как формальное средство, но и как важный поэтический компонент.

Ключевые слова; метр, аруз, силлабический размер, свободный стих, джадидская литература, поэтическая форма, структурная организация произведения.

THE POETIC FUNCTION OF THE METRICAL SYSTEM IN HAMZA'S POETRY

Abdusalomova Xonzodabegim Farxodjon qizi

Andijan State Pedagogical Institute, Master's student

Abstract

This article examines the artistic characteristics of the metrical system in the poetry of Hamza Hakimzoda Niyoziy. The study analyzes the use of aruz, syllabic, and free verse meters in Hamza's poetic works, as well as their respective poetic functions. It explores how these metrical forms are deliberately selected in accordance with the thematic and ideological content of the works, and evaluates the extent to which they contribute to enhancing the aesthetic impact of the texts. The findings demonstrate that, in Hamza's poetry, the metrical system functions not merely as a formal device, but as a significant poetic element.

Keywords; meter, aruz, syllabic meter, free verse, Jadid literature, poetic form, structural composition of the work.

Adabiyotimiz tarixida jadid adabiyoti o'zining she'riyatga oid ilmiy izlanishlari hamda yangicha badiiy-ijodiy tafakkuri bilan alohida ajralib turadi. Taniqli adabiyotshunos olim Naim Karimov fikricha, "Jadid adabiyoti o'zbek adabiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan hodisa bo'lib, unda she'riyat ijtimoiy ongini uyg'otish va ma'rifiy g'oyalarni targ'ib etishning muhim vositasiga aylandi" [1]. Jadid adabiyoti o'zbek adabiyoti tarixida to'liq yangilanish bosqichiga eshik ochdi. Ayniqsa, o'sha davr yozuvchilari o'z asarlarida zamondoshlarini ilm va ma'rifatga chorlash, milliy o'zlikni anglash, umuman olganda, xalqni jaholat uyqusidan uyg'otish g'oyalarini o'z she'rlariga singdirdilar. "Avloniy, Cho'lpon, Tavallo va boshqa jadidchilik vakillari aynan poeziya vositasida millatni uyg'oqlikka, ilm o'rganishga, dunyoga chiqishga chaqiradilar, xalqning abgor ahvolidan mutaassir holda butun orzu-armonlarini, siyosatga nisbatan g'azab va nafrat tuyg'ularini she'rlarida ifoda etmoqqa bel bog'laydilar" [2].

Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy qatori Hamza Hakimzoda

Niyoziy ham mohir dramaturg va o'ziga xos poetik tafakkur sohibi sifatida alohida ajralib turadi. Uning she'riyatida milliy uyg'onish ruhiyati, ijtimoiy muammolar va ma'rifatparvarlik g'oyalari salmoqli ahamiyat kasb etadi. Bu esa ijodkorning poetik mahoratini aniqlashda ahamiyatli omil hisoblanadi. Hamza ijodining g'oyaviy va mazmuniy jihatlari ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilgan, lekin ijodkor she'riyatining poetikasi, xususan, uning vazn tizimining funksional xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan. Holbuki, nazmiy asarning estetik qudrati ko'p jihatdan uning ritmik tuzilishi, vazn va qofiya tizimi bilan bog'liqdir.

Tilshunos olim Roman Jakobson poetik funksiyani nutqda e'tiborning mazmundan ko'ra xabar shakliga qaratilishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, poetik funksiyada til birliklari o'zaro ohang, vazn, qofiya, ritm, parallelizm va obrazlilik orqali bog'lanadi [3]. Bu holatda til badiiy ta'sir yaratish uchun ishlatiladi. Bundan ko'rinadiki, nazmiy matnning strukturaviy tuzilishida vazn, ritm va qofiya muhim poetik vosita hisoblanadi. Mazkur maqolamizning maqsadi Hamza she'riyatida vazn tizimining poetik funksiyalarini tahlil etish hamda ularning badiiy-estetik semantikasini shakllantirishda tutgan o'rnini aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti, o'limi bilan bog'liq holatlar, uning dramalari, romanlari juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Hamzashunoslik maktabi ham tashkil etilgan. Jumladan, bu davrlarda L. Qayumov, N. Karimov, O. Sharafiddinov va boshqa yirik adabiyotshunoslar tomonidan uning asarlari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari sifatida ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, katta va kichik monografiyalar, bir necha o'nlab ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Bu masalada A. Abdukarimovning "Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodining mustaqillikkacha o'rganilishi" nomli tadqiqotida Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti, jumladan, yoshlik yillari, inqilob vaqtidagi hamda inqilobdan keyingi siyosiy shaxs sifatidagi hayoti va ijodining xronologiyasi, janr xususiyatlari, obrazlar tizimi kabi jihatlari o'rganilganiga e'tibor qaratiladi [4]. Nafaqat sovet davrida, balki mustaqillik yillarida ham bu mavzu ustida ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi. Hamza bo'yicha o'rganishlarning deyarli barchasi yo uning hayot yo'liga bag'ishlov, yoki asarlarining g'oyaviy mazmuniga bag'ishlangan ishlardir. Lekin uning she'riyati, ayniqsa, she'riyatining poetik jihatlarga e'tibor yetarlicha bo'lmagan.

Mazkur maqolada Hamza she'riyatining vazniy xususiyatlarini aniqlashda poetik metod, strukturaviy hamda qiyosiy metodlar asosiy metodologik asos sifatida olindi. Poetik tahlil orqali shoir she'rlarining vazn tizimi, strukturaviy tahlilda esa kompozitsion tuzilishi o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali Hamza nazmi uning zamondoshi bo'lgan jadidlarning ijodi bilan taqqoslandi.

Tadqiqot obyekti sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "To'la asarlar to'plami" [5], "She'rlar, pedagogik risolalar, nasriy asarlar to'plami" [6] hamda "Zamon ichra" [7] saylanmasidan olingan she'rlarining vazn poetikasi ustida qilingan tahlillar keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hamza poetikasining o'ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o'zida mumtoz aruz an'anasida ham, xalqona barmoq tizimida ham samarali ijod qilgan. Bundan tashqari, uning ijodida zamondoshlarida deyarli uchramagan erkin she'r shakllarini ham uchratamiz. Bu esa Hamzaning o'zbek adabiyotiga erkin she'rni olib kirgan novator ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zbek she'riyatida yangi poetik shakllar izlagan shoir sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodida an'anaviy aruz tizimi bilan bir qatorda erkin ritm elementlari ham uchraydi, bu esa jadid davri she'riyatining yangilanish davrida muhim bosqich bo'lgan.

Hamza she'rlarida an'anaviy aruz vaznidan salmoqli foydalangan. Quyida Hamzaning ushbu vazndagi "Yo rab" radifli g'azalini keltiramiz:

Gunah zangi bila oinai dildur qaro, yo rab,
O'zing nuring-la sayqal berki, topsin bir safo, yo rab.
Hamisha qilmishim fisqu fujur o'ldi, ibodat yo'q,

O'zing rahm ayla, qilma qahring ila oshno, yo rab.

Odatda aruz vaznida diniy, falsafiy, keng mushohadaga boy mazmundagi she'rlar aks etadi. Ularda aksar hollarda sokinlik, vazminlik ko'zga tashlanadi. Hamzaning ushbu g'azali ham aynan diniy-falsafiy mazmunda ekanligini uning vazni va ritmik kompozitsiyasidan ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu g'azal hazaji musammani solim (mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun) bahrida yozilgan. Bundan tashqari, odatda mumtoz aruz vaznida Allohga murojaat etib, "yor", "go'zal", "ma'shuqa" kabi nomlar bilan atash urf bo'lgan bo'lsa, Hamzaning "yo rab" undalmasi orqali Allohga to'g'ridan-to'g'ri murojaati

adabiyotda kamdan-kam hollarda uchraydigan hodisadir.

Yoki “Hayrona bo‘ldum” g‘azalida:

Hayrona bo‘ldum ul qiz baloga,
Sarvu sanobar, qoshi qaroga,
Ko‘rsatib o‘zni mandek gadoga,
Muncha sitamlar soldi aroga.

G‘azal davomida ritmning muntazamligi ruhiy holat, ko‘proq iztirobni tasvirlashga xizmat qilmoqda. Ritm va ohangning izchil saqlanishi o‘quvchida dramatik kayfiyatni orttirmoqda. Shu jihatdan vazn nafaqat strukturaviy element bo‘lib kelgan, balki mazmundagi poetik yukni ham o‘ziga olmoqda. Ijodkorning yorga muhabbati, uning yonida o‘zini gadodek tutishi, yor yuzidan hamisha sitam va ozor chekishini an’anaviy aruz vaznida yozgani oshiq va ma’shuq mojarosining eski zamonlardan beri bor bo‘lgani va davom etishini she’rning mazmuni bilan birga uning bir maromdagi ritmidan ham anglash mumkin.

Yoki shoirning “Qay kun ul bevafo oshno bo‘ldim, netay...” deb boshlanuvchi muxammasi:

Qay kun ul bevafo oshno bo‘ldum, netay,
Jilvai purg‘amzasig‘a muftalo bo‘ldum, netay,
Ko‘zda uyqu rohati tandin judo bo‘ldum, netay,
Furqati anduhida oxir ado bo‘ldum, netay,
Yig‘labon shomu sahar oxir fano bo‘ldum, netay.

Ushbu muxammasida ham ijodkor yorga oshiq holini tasvirlar ekan, bundan faqatgina azob va uqubat chekkani, buning oqibatida fano — yo‘qlik holiga tushganini keltiradi. Demak, Hamza Hakimzoda Niyoziy aruz vaznida ko‘proq ishq mavzularini kuylagan.

Hamzaning inqilobdan so‘nggi poetik asarlari, asosan, barmoq vaznida yozilgan. Hamza barmoq vaznining imkoniyatlaridan juda keng foydalanadi. U mavjud vazn turkumlari va ritmik ohanglar bilan chegaralanib qolmay, she’riy shakl imkoniyatlarini kengaytirdi. Barmoq turkiylarning nazmda qadimdan qo‘llangan. Buni xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish she’riy shakllarda ham ko‘rishimiz mumkin. Adabiyotshunos olim Fitrat barmoqni “milliy vazn” deb atagan [8]. Hamza ham xalqqa yanada tushunarli bo‘lish, ijodining estetik ta’sir kuchini yanada oshirish maqsadida barmoqning turli janrlaridan foydalandi. Xalqni ma’rifatga, johillikdan qutulishga, ozodlikka da’vat etuvchi va insoniy munosabatlarni ifoda eta oluvchi yangi badiiy shakl izladi, yangi ritm va intonatsiyalar topdi. Ijodkorning barmoq vaznidagi she’rlarining kam hijo, shior-misralardan iborat bo‘lganligi ularning tez va oson yodda qolishi hamda tildan tilga ko‘chib yurishi uchun imkoniyat tug‘diradi. Hamzaning bu davr she’rlari barmoqning eng sodda vaznlarida yozilganligining boisi ham shundadir.

Quyida “Ishchi bobo” she’ridan:

Guldur etub, bulut tarqab,
Yalt-yult etib chaqmoq chaqdi.
Ishchi bobo, seskansang-chi,
Sharqg‘a quyosh chinlab chiqdi!

Hamzaga qadar o‘zbek mumtoz va og‘zaki she’riyati uchun xarakterli bo‘lgan barmoq vaznida misralardagi hijolar soni ham, ularning turoqlanish tartibi ham, asosan, bir xil bo‘lar edi. Barmoq hijolarining sifatiga emas, balki soniga va muayyan qonun-qoidaga ko‘ra takrorlanuvchi turoq tartibiga asoslangan she’riy vazndir. Adabiyotshunos olim Dilmurod Qur’onov: “Misradagi bo‘g‘inlarning qay tartibda turoqlangani she’rning ritmik-intonatsion xususiyatlariga sezilarli ta’sir qiladi”, deydi [9]. Hijolar soni va turoqlar tartibidagi ana shu izchillik Hamzaning ayrim she’rlarida, xususan, bevosita xalq og‘zaki she’riyati ta’sirida yaratilgan asarlarida to‘la saqlanadi. Ritm bunday she’rlarda bir maromda davom etar ekan, butun she’r ana shu ohang asosida qurilgan bo‘ladi:

Eshon ishi / boyni kutmoq / = 8
Aqcha uchun / qo‘lni tutmoq / = 8
Parvo qilmas / bechoralar / = 8
Tosh-u tufroq / chaynasa-da / = 8

Hamzaning publitsistik ruh yetakchilik qiluvchi she’rlariga xos bo‘lgan yana bir ahamiyatli xususiyat shundaki, u jo’shqin kayfiyatni ifodalash, davr ruhini aks ettirish uchun xitob uslubiga murojaat etadi va she’riyatni jonli xalq tiliga yaqinlashtirishga intiladi. Shoirning “Hoy ishchilar”, “Biz ishchimiz”, “Berma erkingni qo‘ldan” kabi minbar she’rlarining jonli tilga yaqin bo‘lgan ohangda yozilganining boisi ham shundadir. Hamzaning ushbu sanalgan she’rlarining barchasi publitsistik ruhdagi, 6–10 hijoli vaznlar

bo‘lib, turoq tartibi va ritmik tasviri bilan o‘zbek poeziyasida qo‘llanilib kelingan barmoq vaznining ko‘rinishlarini tashkil etadi. Bu she‘rlaridagi hijolar sonini va turoqlar tartibini o‘zgartirish natijasida ularda ifodalangan g‘oyaviy mazmunga mos shakl yaratiladi:

Bizning zamon, / xizmatchilar, / = 8
Maydonga chiq / ishchilar / = 7
Bu kun erking / olar kundir, / = 8
Ko‘zing och, / mehnatchilar. / = 7
Yoki shoirning “Biz ishchimiz” she‘rida:
Og‘ur yukda yag‘ir bo‘ldi,
Oppoq, nozik yelkalar.
Rahmat, demoq so‘z o‘rniga
Jerkub, so‘kub, silkalar.

Ushbu misralarda “yag‘ir — oppoq”, “rahmat demoq” bilan “jerkimoq”, “so‘kmoq” kabi zid ma‘noli so‘zlarni qo‘llash orqali ta‘sir kuchi oshirilgan bo‘lsa, aynan shu misrada jerkimoq → so‘kmoq → silkalamoq kabi salbiy bo‘yoqdagi kontekstual sinonimlarni darajalash orqali ma‘no kuchaytirilgan. Bundan tashqari, bu namuna barmoq vaznida 7–8–7–8 tarzida hijolanishi orqali xalqqa murojaat, go‘yoki minbarda turib so‘zlanadigan nutqdek ta‘sir etishiga yo‘l ochgan.

Jadid namoyandalari bosqinchilarga qarshi kurashda yurtni qilich ko‘tarib emas, balki ilm-ma‘rifatga chorlov, xalqni uyg‘otish, yangi tuzumdagi maktablar ochish, aholining imlo-savodini chiqarish yo‘lidan bordilar. Bu bevosita ularning ijodlarida ham namoyon bo‘ldi. Xususan, Abdulla Avloniyning “Maktab haqida” [10] she‘rida:

Maishat bobida ranju alamdan qutqarur maktab,
Hayotu ruha dushman jahli samdan qutqarur maktab,
Qo‘lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g‘ilmonni berur maktab.

Bu kabi chorlov she‘rlar deyarli barcha jadidlarning ijodida o‘z aksini topgan. Shu qatori Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bu borada juda faol ijodkorlardan edi. Uning she‘riyatida ham ma‘rifatga chorlovchi ko‘plab she‘rlar mavjud. Shoir, ayniqsa, millat tarbiyachisi bo‘lmish ayollarni, onalarni o‘qishga chorlagan. Hamzaning “Muborak”, “O‘zbek xotin-qizlariga”, “Muxtarama onalarga xitob” kabi she‘rlari shular jumlasidandir. Adibning “Muxtarama onalarga xitob” she‘ridan:

Ilm, maorif bila begonalar,
Bo‘ldingiz olamga siz afsonalar.
Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!

Ko‘rinib turibdiki, Avloniy maktabni ulug‘lash, uni payg‘ambarlarning nomlari bilan bog‘lab sifatlash orqali ifodalasa, Hamza to‘g‘ridan-to‘g‘ri onalarga murojaat bilan chiqmoqda. Hamzaning kuchli tomoni ham uning ko‘plab she‘rlarida turli chiroyli tashbehlar, jimjimador so‘zlar orqali emas, o‘zi yetkazmoqchi bo‘lgan xitoblarni shaxsga yo‘naltirishi bilan ajralib turadi. Natijada uning asari kuchli ta‘sir qiluvchi va jonli chiqishiga sabab bo‘lgan. Bunday she‘rlarini barmoqning turli xil vaznlarida yozishi esa badiiy-estetik kuchini yanada oshirgan.

Kuzatishlarimiz Hamza o‘zbek she‘riyatida birinchilardan bo‘lib turli xil hayotiy mavzularda ko‘plab sarbast she‘rlar yoki erkin she‘rlar ijod etganligini tasdiqladi. “Sarbast (verlib)da yozilgan she‘r misralaridagi bo‘g‘inlar soni ham, ularning cho‘ziq-qisqaligi ham, turoqlanish yoxud qofiyalanish tartibi ham mutlaqo erkindir”. Hamza bunday serohang she‘rlarning xalq qalbi va ongiga tez yetib borishini chuqur his etdi. Shuning uchun bu usulni o‘z ijodida keng va samarali qo‘lladi.

“Oy singlim, oy og‘am” she‘ri Hamzaning o‘zbek xotin-qizlari ozodligi mavzusida yozgan ko‘plab asarlaridan biri hisoblanadi. Shoir unda “to‘ti yang‘lig‘ qafas ichra” hayot kechirayotgan, shariat, “shum bid‘at”, johil otalar to‘sqinligi tufayli o‘qish, ilm olish huquqidan mahrum etilgan qizlar va ularning bunday ahvolidan norozi yigitlar obrazini aytishuv-dialog usuli asosida yaratgan. “Oy singlim, oy og‘am” she‘rining band qurilishi, dialog shakli o‘zgacha. She‘r personajlarining nutqlari ikki misra (bir bayt)dan iborat. Birinchi bandi (yigitlarning nutqi)ning birinchi satri 12 hijodan, ikkinchi satri esa 15 hijodan tarkib topgan:

Tebransa-da yer, seskanmay yotasizmi? (12)
Og‘ir yuq-u to‘shokinda, oy singlim, jahla botub. (15)

She‘r fikr dinamikasining sakkiz bandida ana shu hijo tartibiga qat‘iy rioya qilingan. Ammo

matnning uch bandida (qizlar nutqida) bu tartib buzilgan, ya'ni unga erkin she'r unsurlari oralab kirgan:

Ta'na qilib seskanmas, deb tek turguncha, (12 hijo)
Ne bo'lur uyg'otsangiz, oy og'am, turtub, turtub. (12 hijo)

Yoki:

Sizga aziz etarin siyosat-la, (11 hijo)
Majbur etub o'qumoqqa, oy og'am, ko'zni ochmoq. (15 hijo)

Shoirning "Yasha Turon", "Hoy, hoy, otamiz", "Uyg'on!", "Yashangiz, ishchi, dehqonlar!" kabi inqilobiy ruhdagi she'rlari ham o'qishga, ham kuylashga mos yozilgan:

Hoy, hoy, otamiz! (5 hijo)
Toshni kesar boltamiz. (7 hijo)
Zamon keldi ishchilarni (7 hijo)
Uyqudan uyg'otamiz! (7 hijo)

Shunisi ahamiyatliki, Hamza o'zining yangi davrga xos she'rlarida notiqlik, minbar she'riyatiga xos murojaat, chaqiriq, tashviqiylik, shiorylik, qat'iy tasdiqlash, keskin rad etish, asar boshidan to oxirigacha ko'tarinki jangovar ohangni saqlash va boshqa alomatlarining tashkil topishida erkin she'r unsurlari, jumladan, satrlardagi hijo miqdorining noteng qo'llanishi qoidasidan ham mahorat bilan foydalangan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasida Hamza she'rlari mazmun va g'oyaviy jihatdan ahamiyatga ega ekani hamda uning vazniy tizimi muhim poetik funksiyalarni o'zida tashiyotgani ko'rib chiqildi. Natijada Hamza falsafiy, diniy, chuqur o'yga toldiruvchi yoki an'anaviy ishq mavzularida aruz vazniga murojaat qilgani, jo'shqin, marsh va chorlov tarzidagi she'rlari uchun esa barmoq vaznlaridan foydalangani, notiqlik, minbarga xos, tashviqot ruhidagi she'rlarini esa erkin vaznda yaratganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihatlarning barchasi ijodkor mahoratini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hamza nazmida vazn shunchaki poetik element emasligini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda bu masalani yanada keng qamrovda o'rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
2. Tojiboyeva M., No'monova R. Milliy uyg'onish davri adabiyotida erk va ma'rifat masalasi // International Scientific Journal "Interpretation and Researches". – 2023. – № 1(2). – B. 93.
3. Jakobson R. Linguistics and poetics // Style in Language / ed. T. Sebeok. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960. – P. 350–377.
4. Abdukurimov A. Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodining mustaqillikkacha o'rganilishi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1988. – 1-jild.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy. She'rlar, pedagogik risolalar, nasriy asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1988. – 2-jild.
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Zamon ichra. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1989.
8. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 4-jild. – B. 2.
9. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2018. – B. 342.
10. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 2-jild. – B. 84.